

**TEMURIYLAR HARBIY TIZIMIDA AMIR SHOHMALIKNING O'RNI VA  
JANGOVAR FAOLIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19191169>

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar  
metodikasi kafedrası o'qituvchsi*

**Movlonova Odinaxon**

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Amir Temur davlatchiligi tizimida amirlarning o'rni tahlil qilinib, uning ishonchli amirlaridan biri – Amr Shohmalikning siyosiy-harbiy faoliyati manbashunoslik asosida o'rganiladi. Maqolada XIV asr oxiri Movarounnahr siyosiy vaziyati, Temuriylar harbiy aristokratiyasi shakllanishi hamda Amr Shohmalikning harbiy yurishlar va davlat boshqaruvidagi roli yoritiladi. Maqolada asosiy yozma manbalar solishtirma tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqariladi.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Amr Shohmalik, Temuriylar davlatchiligi, amirlar instituti, harbiy boshqaruv, Movarounnahr, Zafarnoma.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируется роль института эмиров в системе государства Амир Тимура и исследуется политико-военная деятельность одного из его доверенных эмиров – Амира Шохмалика на основе источниковедения. В исследовании рассматривается политическая ситуация в Маверауннахре в конце XIV века, формирование военной аристократии Тимуридов, а также участие Амира Шохмалика в военных походах и управлении государством. Основные письменные источники сопоставляются и анализируются, на их основе делаются научные выводы.*

**Ключевые слова:** *Амир Тимур, Амир Шохмалик, государство Тимуридов, институт эмиров, военное управление, Маверауннахр, Зафарнама.*

**Annotation**

*This article examines the role of the emirate institution in the state system of Amir Temur and studies the political and military activities of one of his trusted emirs, Amir Shohmalik, based on source analysis. The research covers the political situation in Movarounnahr in the late 14th century, the formation of the Timurid military aristocracy, and the role of Amir Shohmalik in military campaigns and state administration. Primary written sources are comparatively analyzed, and scientific conclusions are drawn.*

**Keywords:** *Amir Temur, Amir Shohmalik, Timurid state, emirate institution, military leadership, Movarounnahr, Zafarnama.*

O'zbekiston davlatchiligi tarixida Amir Temur va Temuriylar sulolasi alohida o'rin tutadi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida markazlashgan, kuchli va intizomli davlat barpo etgan Sohobqiron nafaqat buyuk sarkarda, balki puxta siyosiy tafakkur egasi sifatida ham tarixda muhrlandi. Uning davlatchilik konsepsiyasi adolat, qat'iy tartib-intizom, harbiy salohiyat va ma'naviy birlik tamoyillariga asoslangan edi.

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida milliy davlatchilik tarixini chuqur o'rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida Amir Temur siymosiga yuksak baho berib, uni milliy g'urur va davlatchilik maktabining buyuk namoyandasi sifatida e'tirof etadi. Jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Amir Temur merosi – bu kuchli davlat barpo etish, adolatli boshqaruv va vatanparvarlikning yuksak namunasi hisoblanadi. U zot Sohibqiron shaxsini “Milliy o'zligimizni anglashda beqiyos tarixiy timsol” sifatida baholaydi.

Darhaqiqat, Amir Temur barpo etgan davlat tasodifiy yutuqlar mahsuli emas edi. Bu tizim puxta o'ylangan siyosiy strategiya, kuchli harbiy intizom va sadoqatli amirlar faoliyatiga tayangan holda shakllandi. Temur o'z atrofiga fidoyi, jasur va davlat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ya oladigan amirlarni jamlay oldi. Aynan ana shu sadoqatli amirlar imperiyaning harbiy yurishlarida, ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlashda hamda hududiy yaxlitlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ana shunday mard, jasur amirlaridan biri Amir Shohmalikdir. U XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida shakllangan harbiy-siyosiy elita vakillaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda uning kelib chiqishi Chig'atoy ulusi davrida muhim o'rin tutgan mahalliy amirlar tabaqasi bilan bog'liq ekani qayd etiladi. U turkiy-mo'g'ul harbiy an'alariga asoslangan muhitda voyaga yetgan bo'lib, yoshligidan harbiy xizmat, intizom va sadoqat tamoyillari asosida tarbiyalangan.

XIV asr o'rtalarida Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik kuchayib, markaziy hokimiyat zaiflashgan bir davrda ko'plab amirlar yangi kuchli yetakchi atrofida birlashishga intilganlar. Ana shunday tarixiy sharoitda Amir Shohmalik Amir Temur xizmatiga kirgan. Manbalarga ko'ra, u Amir Temurning dastlabki tarafdorlari qatorida bo'lib, Temurning siyosiy sahnaga chiqish jarayonida faol ishtirok etgan.

Amir Shohmalikning Temur xizmatiga qabul qilinishida uning shaxsiy fazilatlar — jasorat, qat'iyat, buyruqqa so'zsiz bo'ysunish va harbiy mahorati muhim rol o'ynagan. Temur o'z atrofiga faqat sadoqatli va sinovdan o'tgan amirlarni jamlashga intilgan bo'lib, Amir Shohmalik ana shunday ishonchli kishilar safidan joy olgan. Uning faoliyati asosan harbiy boshqaruv, hududiy nazorat va markaziy hokimiyatni mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan. U Amir Temur tomonidan ishonch bildirilgan, sinovlardan o'tgan sarkardalar safida turgan.

Amir Shohmalik Temurning harbiy yurishlarida qo'shin boshqaruv borasida yuqori malaka ko'rsatgan. Tarixiy manbalarda u jang maydonida qat'iyatli, tezkor qaror qabul qila oladigan va harbiy intizomni qat'iy saqlovchi sarkarda sifatida tasvirlanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan. Qo'shinnlarni jangga tayyorlash va safarbar etish, strategik hududlarni qo'riqlash va nazorat qilish, ichki isyonlar va bo'ysunmas kuchlarni bostirish, harbiy yurishlar davomida tartib-intizomni ta'minlashdan iborat edi.

XIV asrning 70–80-yillarida Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etgach, saltanat xavfsizligini ta'minlash va savdo yo'llarini nazorat qilish maqsadida Xuroson va Eron tomon yurishlarni boshladi. Bu hududlarda siyosiy beqarorlik, mahalliy amirlar o'rtasidagi nizolar va iqtisodiy markazlarning zaiflashuvi Temur uchun qulay sharoit yaratgan edi. Xuroson — Hirot, Mashhad, Sabzavor kabi markazlari bilan strategik ahamiyatga ega bo'lsa, Eronning markaziy va g'arbiy hududlari (Isfahon, Shiraz, Tabriz) iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim bo'lgan. Ushbu yurishlarda Amir Shohmalik Temur qo'shinining ishonchli amirlaridan biri sifatida qatnashgan.

Xususan, Hirot va Sabzavor atrofidagi janglarda Temur qo'shinining asosiy kuchlari tarkibida Shohmalik o'z lashkari bilan ishtirok etgan. Bu janglarda asosiy vazifa dushman qo'shinini bo'lib tashlash, qanotdan zarba berish va chekinayotgan qo'shinnlarni ta'qib qilishdan iborat bo'lgan. Amir

Shohmalik ana shunday taktik harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan sarkardalardan biri sifatida ko'rsatiladi.

1381-yilda Hirotning zabt etilishi Temurning Xurosondagi hukmronligini mustahkamladi. Sharafuddin Ali Yazdining "Zafarnoma" asarida keltirilishicha, Temur qo'shinlari Xuroson hududiga kimgach, harbiy qismlar bir necha yo'nalishda harakat qilgan. Shohmalik ana shu bo'linmalardan biriga boshchilik qilgan va quyidagi vazifalarni bajargan. Ilg'or (avangard) qo'shin tarkibida harakat qilish, dushman kuchlarini razvedka qilish va ularning joylashuvini aniqlash, qanotdan zarba berish orqali asosiy kuchlarga yo'l ochish, qamal vaqtida tashqi himoya halqasini mustahkamlash, ayniqsa, chekinayotgan dushman kuchlarini ta'qib qilish va ularni tarqatib yuborishda uning qo'shini muhim rol o'ynagan.

1387-yilda Isfahonda qo'zg'olon ko'tarilgach, Temur yana Eron tomon yurish qiladi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida bu voqealar tafsilotlari bayon etiladi. Isfahon qamalida Shohmalik kabi amirlar shahar atrofini to'liq qurshab olish, aloqa yo'llarini uzish va ichki qarshilikni sindirish vazifalarini bajargan. Shohmalik qamal taktikasi va jangovar safni saqlash borasida o'zini ko'rsatgan. U boshqargan bo'linmalar shahar tashqarisida yuz berishi mumkin bo'lgan qarshi hujumlarni bartaraf etishda ishtirok etgan. Xuroson va Eron yurishlari natijasida Temur saltanati g'arbiy va janubiy yo'nalishda kengaydi, Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlari nazorat ostiga olindi, Saltanat iqtisodiy bazasi mustahkamlandi. Shohmalik bu jarayonda Temur harbiy mexanizmining muhim bo'g'ini sifatida qatnashdi.

XIV asr oxirida Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq hududlarida siyosiy ustunlik uchun kurash keskin tus oldi. Bu davrda Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlar do'stlikdan ochiq harbiy to'qnashuvga yetib bordi. To'xtamish dastlab Temur yordamida Oltin O'rda taxtiga o'tirgan bo'lsa-da, keyinchalik mustaqil siyosat yuritib, Movarounnahr hududlariga bostirib kiradi. Natijada ikki buyuk kuch o'rtasida hal qiluvchi janglar yuz beradi. Ana shu janglarda ham Amir Shohmalikning faol ishtirok etgan. To'xtamish dastlab Temur tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Oltin O'rda taxtini egallaydi. Biroq hokimiyat mustahkamlangach, u Temur ta'siridan chiqishga harakat qiladi va hatto 1385–1388-yillarda Movarounnahr hududlariga hujum qiladi. Bu vaziyat Temur uchun shimoliy chegaralarni himoya qilish va Dashti Qipchoq ustidan nazoratni tiklash zaruratini tug'diradi. Natijada 1391 va 1395-yillarda ikki yirik harbiy yurish amalga oshiriladi. 1391-yilda Temur katta qo'shin bilan Dashti Qipchoqqa yurish qiladi. Hal qiluvchi jang Volga bo'yidagi Qunduzcha (Kondurcha) daryosi yaqinida yuz beradi. Temur qo'shini an'anaviy tarzda markaz, o'ng qanot, chap qanot hamda ilg'or qismlarga bo'lingan edi. Amir Shohmalik ana shu jangda qanot qo'mondonlari tarkibida yoki tezkor otliq qismlarga boshchilik qilgan amirlardan biri sifatida qatnashgan. Uning vazifasi dushman safini yon tomondan yorib kirish, chekinayotgan kuchlarni ta'qib qilish, jang maydonida tartibni saqlash, aloqa va muvofiqlashtirishni ta'minlash. Qunduzcha jangida Temur g'alaba qozonadi, biroq To'xtamish to'liq tor-mor etilmaydi.

1395-yilgi Terek jangi XIV asr oxiridagi eng muhim harbiy to'qnashuvlardan biri bo'lib, unda Amir Temur qo'shinlari To'xtamish boshchiligidagi Oltin O'rda kuchlari ustidan hal qiluvchi g'alabaga erishdi. Bu jang nafaqat ikki hukmdor o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshilikni yakunladi, balki Dashti Qipchoq hududidagi siyosiy kuchlar nisbatini tubdan o'zgartirdi. Mazkur jangda ham — Amir Shohmalik faol ishtirok etgan. Uning roli Temur harbiy tizimi doirasida, ayniqsa tezkor otliq qo'shinlar harakatida muhim ahamiyat kasb etgan.

1391-yilgi Qunduzcha jangida To'xtamish mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Oltin O'rda hali to'liq tor-mor etilmagan edi. To'xtamish yana kuch to'plab, Temurga qarshi kurashni davom ettirdi.

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Shu sababli 1395-yilda Temur yana shimol tomon yurish boshladi. Hal qiluvchi jang Terek daryosi bo'yida yuz berdi. Bu jang Oltin O'rda taqdirini hal qilgan voqea sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Amir Shohmalik tajribali sarkarda sifatida qanot yoki tezkor otliq qismlarga boshchilik qilgan amirlardan biri bo'lgan. Dashti Qipchoqning keng ochiq maydonlari tezkor otliq qo'shinlar uchun qulay bo'lgan. Shohmalik aynan shunday harbiy sharoitda samarali harakat qilgan.

Shohmalik boshchiligidagi qismlar ayniqsa tezkor harakatlarda faol qatnashgan. U dushman safi buzilgan paytda kuchli zarba berish va parokanda bo'lgan qo'shinlarni quvib yetishda muhim rol o'ynagan.

Amir Temurning 1398–1399-yillardagi Hindistonga yurishi harbiy faoliyatining eng yirik va murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, qo'shin tarkibida tajribali amirlar – lashkarboshilar, mingboshilar va tumanboshilar mavjud edi. Amir Shohmalik ana shunday yuqori martabali harbiy qo'mondonlardan biri sifatida safarbar etildi. Yurish jarayonida tog'li hududlar va daryo kechuvlari katta harbiy mahorat talab qildi. Shohmalik qo'shini aynan ilg'or safda yoki qanot qismlarida harakat qilgan. Temur qo'shini Hindiston hududiga kirgach, mahalliy hukmdorlar qarshiligiga duch keldi. Panjob hududida bir necha qal'a va shaharlar zabt etildi. Temur harbiy tizimida qo'shinlar markaz, o'ng va chap qanot hamda ilg'or qismlarga bo'linardi. Shohmalik ko'pincha tezkor otliq qismlarni boshqargan. Bu Hindiston yurishida ayniqsa muhim edi, chunki masofa uzoq va hudud notanish bo'lgan. 1398-yil dekabr oyida Temur qo'shini Dehli yaqiniga yetib keldi. Dehli sultoni Nosiruddin Mahmudshoh Tug'luq qo'shini, jumladan jangovar fillar bilan qarshilik ko'rsatdi. Shohmalik boshchiligidagi qismlar jangda faol qatnashib, ayniqsa dushman safini buzishda va chekinayotgan qo'shinlarni ta'qib qilishda muhim rol o'ynagan. Temur jang oldidan qo'shinini qat'iy safga keltirgan va har bir amirga aniq vazifa yuklatgan. Dehli zabt etilgach, shaharda tartibni saqlash va nazoratni o'rnatish muhim vazifa edi. Shohmalik kabi tajribali amirlar, harbiy patrul xizmatini yo'lga qo'yish, qo'shin intizomini saqlash, o'ljalarni nazorat ostida taqsimlash, isyonlarning oldini olish kabi vazifalarni bajargan. Bu bosqich Temur yurishining eng murakkab davri bo'lib, shahardagi vaziyat tezda izdan chiqishi mumkin edi. Harbiy intizom va qat'iy boshqaruv muhim ahamiyat kasb etdi. Hindiston yurishi natijasida, Temur katta miqdorda boylik va hunarmandlarni Movarounnahrda olib ketdi, saltanat iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi, dehli sultonligi zaiflashdi, Temurning jahon miqyosidagi nufuzi oshdi. Bu natijalarga erishishda Shohmalik kabi amirlarning harbiy tajribasi muhim omil bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda XIV asrning ikkinchi yarmida barpo etilgan Temuriylar saltanati qudrati, avvalo, Amir Temur yaratgan mukammal harbiy tizim va unga sodiq amirlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. Ana shunday sarkardalardan biri — Amir Shohmalik bo'lib, u Temurning ko'plab yurishlarida faol ishtirok etgan, saltanat harbiy mexanizmining muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'lgan. Shohmalikning harbiy faoliyatini tahlil qilganda, uning ishtiroki bir necha strategik yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi. Movarounnahrni birlashtirish jarayoni, Xuroson va Eron yurishlari, Oltin O'rda bilan to'qnashuvlar, shuningdek, Hindiston yurishi. Ayniqsa, To'xtamishga qarshi 1391-yil Qunduzcha va 1395-yil Terek janglarida Shohmalik tezkor otliq qo'shinlar harakatida, qanot zarbalarida va dushmanni ta'qib etishda muhim rol o'ynagan. Bu janglar natijasida Oltin O'rda siyosiy jihatdan zaiflashib, Temur saltanatining shimoliy chegaralari mustahkamlangan. Hindiston yurishida esa Shohmalik uzoq masofali harbiy harakatlarda, notanish iqlim va hudud sharoitida qo'shin intizomini saqlash, tezkor zarba berish va jangovar safni mustahkamlash vazifalarini bajargan. Dehli yaqinidagi hal qiluvchi jangda Temur qo'shinining muvofiqlashtirilgan harakati aynan tajribali amirlar faoliyati bilan ta'minlangan bo'lib, Shohmalik ana shu jarayonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan.

Manbalarda (jumladan, Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdi asarlarida) Shohmalik alohida mustaqil harbiy arbob sifatida keng tasvirlanmasa-da, u Temurning yaqin va ishonchli amirlari qatorida tilga olinadi. Bu holat uning shaxsiy jasorati bilan birga, Temur harbiy tizimining jamoaviy va markazlashgan xarakterini ham ko'rsatadi. Temur uchun har bir amir aniq vazifa va mas'uliyat doirasida harakat qilgan; Shohmalik esa aynan shu tizimda samarali faoliyat yuritgan sarkardalardan bo'lgan.

Amir Shohmalik Temur saltanatining kengayishi va mustahkamlanishida muhim hissa qo'shgan harbiy arbobdir. U yirik strateg sifatida emas, balki amaliy harbiy boshqaruvda, jang maydonidagi tezkor qaror va harakatlarda o'zini namoyon etgan sodiq sarkarda sifatida tarixda o'z o'rniga ega. Umuman olganda, Amir Shohmalik faoliyati Temuriylar harbiy tizimining samaradorligini, markazlashgan boshqaruv va sodiq amirlar tayanchiga asoslangan siyosatning muvaffaqiyatini yaqqol ko'rsatadi. Uning janglardagi ishtiroki Temur davlatchiligining qudratini ta'minlagan omillardan biri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan o'giruvchi-Y.Hakimjonov, tarjimani qayta nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir – A.O'rinboyev, izohlar va lug'atlarni tuzuvchi – H.Karomatov. Hofizi Abruning "Zafarnoma"ga yozgan "Zayl"(ilova)ni forsiydan o'giruvchi hamda uning izohlarini,geografik nomlar izohini tuzuvchi – O.Bo'riyev.-T.: "Fan" nashriyoti, 2019.-544 b.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн./ Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев II – жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.